

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil).– 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHDA GLOBAL AXBOROT OQIMLARI TA'SIRINI PEDAGOGIK NUQTAI NAZARDAN VUCA-DUNYO KONSEPTI BILAN BOG'LIQLIGI

Hasanova Bo'rigul Hasan qizi

NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. ushbu tezis VUCA-muhit (o'zgaruvchanlik, noaniqlik, murakkablik va ko'pma'nolilik) sharoitida Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda global axborot oqimlari ta'sirini pedagogik nuqtai nazardan vuca-dunyo konsepti bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tezisdan umumta'lim maktablarida raqamli resurslar yordamida axloqiy tarbiyani rivojlantirishning samarali usullari, shuningdek, amaliy muammolar ham ko'rib chiqilgan. Statistik ma'lumotlar asosida o'quvchilarda axloqiy dunyoqarashni rivojlantirish haqida tahliliy ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: VUCA-dunyo konsepti, axloqiy dunyoqarash, ta'lim, tarbiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar, suniy intellekt, o'zgaruvchanlik, noma'lumlik, murakkablik, noaniqlik.

THE RELATIONSHIP OF THE IMPACT OF GLOBAL INFORMATION FLOWS WITH THE CONCEPT OF THE WORLD FROM A PEDAGOGICAL POINT OF VIEW ON THE DEVELOPMENT OF MORAL WORLDVIEW IN HIGHER EDUCATIONAL STUDENTS

Hasanova Borigul Hasan kizi

NavDU PhD student

Annotation. This paper presents a pedagogical analysis of the relationship between the VUCA world concept and the impact of global information flows on the development of the moral worldview of senior secondary school students in a VUCA environment characterized by volatility, uncertainty, complexity, and ambiguity. The study examines effective approaches to promoting moral education in general secondary schools through the use of digital educational resources and discusses the practical challenges encountered in this process. Based on statistical data, the paper provides analytical scientific evidence regarding the development of students' moral worldview.

Keywords: VUCA world concept, moral worldview, education, upbringing, Internet, social media, artificial intelligence, volatility, uncertainty, complexity, ambiguity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i15/n17>

Bugungi zamonaviy tezlik bilan rivojlanayotgan jamiyatda turli axborotlar, axborot manbalari, ijtimoiy va iqtisodiy soha rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar turli sohada turli nim bilan atalib tahlil qilinmoqda. XXI-asr tom ma'noda axborot asri, yangi o'zgarishlar asri deb atasa mubolag'a bo'lmaydi.

Bu davrga kelgunga qadar turli sohada o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Ko'rishimiz mumkinki, telegraf va rotatsion tipografik mashinaning yaratilishi (1847 y.), telefon (1870 y.), radio (1895 y.), simsiz telegraf (1922 y.), televidenie (1930 y.), 1946 yil AQShning Sent-Luis shahrida radiotelefon aloqa tizimi ham, u hozirgi mobil aloqaning ilk ko'rinishi bo'lgan dastlabki uyali aloqa ham AQShda (1972 y.) paydo bo'ldi. Aynan ana shu kashfiyotlar keyinchalik axborot va axborotlashtirish sohasidagi olamshumul voqea – 1986 yil Internetning paydo bo'lishiga olib keldi. [1] Bunday o'zgarishlar boshqa sohalarni rivojlanishiga turki bo'lib xizmat qiladi. Chunki boshqa sohalar bir-biri bilan uzviy rivojlanishi uchun internet va ijtimoiy

tarmoqlar va suniy intellektning roli kata. Bilamiz o'sib kelayotgan yosh avlodda internet, ijtimoiy tarmoqlar va suniy intellektga bog'lanib qolgan.

Bugungi globallashuv va raqamli axborotlashuv jarayonlari ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, VUCA-dunyo modeli (o'zgaruvchanlik, noaniqlik, murakkablik va ko'pma'nolilik) sharoitida o'quvchilarning qadriyatlar tizimi turli madaniy va mafkuraviy oqimlar ta'siri ostida shakllanmoqda. Bu hol o'quvchilarda axloqiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonini yanada murakkablashtiradi.[2] Bu jarayonni biz VUCA-dunyo konsepti atamasi bilan nomlab pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda global axborot oqimlarni uzviy ta'sirini pedagogik nuqtai nazardan vuca-dunyo konsepti bilan bog'liqligi.

Jadval

T.r	VUCA elementi	Pedagogik ma'nosi	Axborot oqimlari ta'siri	Pedagogik 3misol. Amaliy vaziyat
1	Volatility (O'zgaruvchanlik)	Ta'lim jarayonidagi tez o'zgarishlar	Axborot oqimlari tez yangilanadi, o'quvchilar turli yangiliklar bilan tez-tez tanishadi	Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yangi ma'lumotlar paydo bo'lib, o'quvchi kundalik axloqiy qarorlarini yangilangan bilim asosida qabul qiladi
2	Uncertainty (Noma'lumlik)	Kelajak natijasini oldindan bilib bo'lmashlik	Turli manbalar turlicha ma'lumot beradi, shuning uchun o'quvchi natijani oldindan bilolmaydi	O'quvchi kimga yordam berish yoki qanday xatti-harakat tanlashda turli fikrlar bilan duch keladi
3	Complexity (Murakkablik)	Axborot va vaziyatlarning ko'p qatlamli bo'lishi	Turli madaniyatlar, qadriyatlar va manbalar bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi	Darsda global muammolarni muhokama qilish: ekologiya, inson huquqlari, ijtimoiy adolat – o'quvchi bir vaqtning o'zida ko'p jihatlarni hisobga oladi
4	Ambiguity (Noaniqlik)	Axborot turlicha talqin qilinishi	Turli manbalar qarama-qarshi axborot berishi mumkin, o'quvchi vaziyatni turlicha tushunadi	Ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar yoki xalqaro voqealarni o'quvchi turlicha talqin qiladi; pedagog yordamida to'g'ri axloqiy xulqni tanlash o'rgatiladi

Ushbu jadvalda yuqori sinf o'quvchilariga VUCA-dunyo konseptida dunyoviy axborot oqimlarning axloqiy dunyoqarashiga pedagogik ta'siri tahlil qilingan. Bunga ko'ra VUCA tushunchasi Volatility bu o'zgaruvchanlik ya'ni ta'lim jarayonidagi tez o'zgarishlar, axborot oqimlari tez yangilanadi, turli yangiliklar bilan o'quvchilar tez-tez tanishadi. VUCA-dunyo konseptida internet va ijtimoiy tarmoqlardagi har daqiqada yangi ma'lumotlar paydo bo'lib

o'quvchilar kundalik axloqiy qarorlarni yangilangan bilim asosida qabul qiladi. Uncertainty bu noma'lumlik kelajak natijasini oldindan bilib bi'lmaslik Turli manbalar turlicha ma'lumot beradi, shuning uchun o'quvchi natijani oldindan bilolmaydi. O'quvchi kimga yordam berish yoki qanday xatti-harakat tanlashda turli fikrlar bilan duch keladi. Complexity bu murakkablik axborot va vaziyatlarning ko'p qatlamli bo'lishi shuningdek turli madaniyatlar, qadriyatlar va manbalar bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi. Darsda global muammolarni muhokama qilish: ekologiya, inson huquqlari, ijtimoiy adolat – o'quvchi bir vaqtning o'zida ko'p jihatlarini hisobga oladi. Ambiguity bu noaniqlik axborot turlicha talqin qilinishi, turli manbalar qarama-qarshi axborot berishi mumkin, o'quvchi vaziyatni turlicha tushunadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar yoki xalqaro voqealarni o'quvchi turlicha talqin qiladi bunday vaziyatlarda pedagog yordamida to'g'ri axloqiy xulqni tanlash o'rgatiladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida –“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” [3] Prezidentimizni nutqlarida o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish lozimligi takidlandi. Bu bo'yicha ham yurtimizda qator qaror va farmonlar imzolanib ishlar amalga oshirilayapti. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2022–2024 yillarda “Raqamli madaniyat darslari” loyihasi doirasida 1000 dan ortiq maktablarda o'quvchilarga media axloq va raqamli fuqarolik elementlarini o'rgatish ishlari boshlangan. [4]

2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan “Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi”[5]da belgilangan ustuvor yo'nalishlar bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida o'quvchilar ongida axloqiy dunyoqarashni shakllantirish uchun muhim me'yoriy asos bo'lib xizmat qilib keladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ilgari surilgan PF-158-sonli “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risidagi farmoni [6] kabi bir qator qaror va farmonlarda axloqni rivojlantirishga oid qator vazifalar qo'yilgan va amalga oshirilayapti. Biroq hozirgi VUCA-dunyo konseptida turli axborotlar tezlik bilan o'zgarib, noaniqlarga to'la bir paytda mavhum ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilib ta'limda axloqiy dunyoqarashini rivojlantirayotgan bir zamonda pedagog xodimlar va o'quvchilar doimo o'z ustida ishlashi talab etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. -Москва:Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2003. с 13.
2. Hasanov, A. Ma'naviyat va axloq asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 25-b
3. Sh.M.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. 19-sentabr 2017-yil.
4. XTV axborot xizmati, “Raqamli madaniyat darslari” loyihasi ma'lumotlari, 2023-yil.
5. “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026” <https://qalampir.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Farmon “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida, 11.09.2023, PF-158-son. O'zbekiston Respublikasi. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> (ko'rilgan: 06.01.2026).

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil). – 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.